

CHET TILLARINI O‘RGATISHNING SAMARALI USULLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Raimjonova Mushtariy
Andijon Davlat Chet tillar instituti
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kunimizning dolzarb mavzularidan biri bo‘lgan chet tillarini o‘rgatishning samarali usullari haqida ma‘lumot berilgan. Bu usullar orqali maktab yoki oliygoh o‘quvchilarining til o‘rganish mahoratlarini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga bu usullar yoshlarning tillarni qiziqarli mashg‘ulotlar, intensiv yondashuv va taraqqiy muhitda o‘rganishlarini ta‘minlaydi.

Kalit so‘zlar: prinsip, metod, integratsiyalashuv, lisoniy bilimlar, muloqot, salohiyat, sanskrit, maqsadli til.

Аннотация: В данной статье представлена информация об эффективных методах преподавания иностранных языков, что является одной из актуальных тем наших дней. С помощью этих методов можно развивать навыки изучения языка у школьников или студентов. В то же время эти методы гарантируют, что молодые люди изучают языки интересно, интенсивно и в прогрессивной среде.

Ключевые слова: принцип, метод, интеграция, лингвистические знания, общение, компетентность, санскрит, целевой язык.

Abstract: This article provides information about effective methods of teaching foreign languages, which is one of the current topics of our day. Through these methods, the language learning skills of school or university students can be developed. At the same time, these methods ensure that young people learn languages in an interesting, intensive approach and in a progressive environment.

Key words: principle, method, integration, linguistic knowledge, communication, competence, Sanskrit, target language.

Hozirgi kunda hayotimizni chet tillarisiz tasavvur qilish qiyin. Chet tillari, xususan, xitoy, arab, rus, island, ivrit, nemis, norveg hamda fransuz tillari dunyo reytingidagi eng qiyin tillar ro‘yhatidan joy egallagan. Koreys, yapon, hind, turk, ispan, bengal tillarini esa bimalol kunimizning faol va ilg‘or tillari deya olamiz. Ular so‘zlashuvchilari soni bo‘yicha ham dunyo reytingida o‘z o‘rniga ega. Chet tillarini o‘rganish insonga sayohatlar, daromadli ish, yangi tanishuvlar kabi bir qator imkoniyatlarni taqdim etadi.

Tilshunos olim Sh.Safarov: “Til muloqot vositasi bo‘lish bilan bir qatorda dunyoni bilish, uning haqida axborot to‘plash va uni saqlash, boshqalarga yetkazish vositasi hamdir” – deb ta‘kidlagan.

Tilshunoslikning hozirgi taraqqiyot bosqichida lisoniy ilm sohalarining integratsiyalashuvining zaruriyati haqida V.A. Pishalnikova shunday fikr bildiradi: “Tilshunoslikning ko‘pgina abadiy muammolarini anglash usuli, tilshunoslikdagi sohalararo aloqalarning kuchayishi mavjud bo‘lgan barcha xildagi lisoniy bilimlarning birlashuvini taqozo etadi va tilni ilmiy obyekt sifatida boshqacha yangicha miqyosda ongli ravishda o‘rganishni taqozo etadi. Tilshunoslikning obyektiv holati to‘ldiruvchanlik prinsipini bilimlarning integratsiyalashuvi prinsipi sifatida oldingi o‘ringa olib chiqmoqda”.

Biroq chet tillarini o‘rganish mobaynida o‘quvchilar bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, ammo til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va intilish bu qiyinchiliklarni yengib o‘tishda kuch beradi. Namuna sifatida xitoy tili qiyinligi bo‘yicha ginneslar rekordi kitobiga kiritilgan. Xitoy lug‘atlarida 85 000 dan ortiq ierogliflar bor. Lekin tilda ularning 7 000 tasi

ishlatiladi. Xitoy tili fonetikasida 4 xil oxang mavjud bo‘lib, bitta so‘zni noto‘g‘ri talaffuz qilish orqali uning ma‘nosini butunlay o‘zgartirib yuborish mumkin.

Mana shunday qiyin tillarni o‘rgatishda turli xil samarali usullar barcha talabalarga foydali bo‘ladi, sababi ularning aksari bo‘lajak ustozlardir. Quyida ana shunday samarali usullardan bir nechtasini sanab o‘tamiz.

1-usul. O‘quvchilar bilan do‘stona muloqot qilish kerak. Inson eng ko‘p yaqin do‘sti bilan erkin muloqot qiladi. O‘quvchingiz ham siz bilan erkin muloqot qilishi uchun uni do‘sti kabi bo‘lishingiz zarur. Kezi kelganda kuldirish, kezi kelganda esa tanbeh berish kerak. O‘quvchi ustoziga mehr qo‘yishi uni darsga qiziqishiga turtki bo‘ladi.

2-usul. O‘quvchilar yozgan ishlar (esse, insho, mashqlar) ni qizil ruchka bilan tekshirmang. Bu o‘quvchilarga xatolarini yaqqol ko‘rsatib beradi. Vaqtlar o‘tishi bilan ular o‘z xatolarini ajralib turishiga o‘rganib qolishadi. So‘ng ularning ong ostida xatolarga ko‘nikish paydo bo‘ladi.

3-usul. O‘quvchilarning barchasiga ishonning. "Bu o‘quvchining salohiyati past, u fanni o‘zlashtira olmaydi" demang, ularning har biriga ahamiyat bering, ko‘maklashing. Siz ishonch bergan o‘quvchi ishonchingiz ortidan ham yutuqlarga erishadi.

4-usul. Guruh bilan ishlashga ahamiyat bering. O‘quvchilarni o‘zi kelisha olmaydigan do‘stlari bilan guruh bo‘lib ishlashini ta‘minlang. Bunda qiziqarli va fanga bog‘lik mashg‘ulotlardan foydalaning. Bu usul orqali bola sheriklari bilan kelishishni o‘rganadi. Keyinchalik bu sinf yoki guruhda bir-biridan "uzoq" o‘quvchi qolmaydi.

5-usul. O‘quvchini darsga majburlab chaqirish. Bu metod ota-onalar ham qo‘llashi kerak bo‘lgan usul. Yoshlar 15-19 yosh oralig‘ida o‘qishni o‘z-o‘zidan hohlamay qolishadi. Shu vaqtda ularni dars qilishga majburlash zarur. Sababi darsni hohlamay qolishlik o‘tib ketadi, ammo, o‘sha vaqt o‘quvchi o‘rganishdan to‘xtasa, keyin ilmga dangasalik qilishi tabiiy holga aylanadi.

6-usul. Chet tillarini o‘rgatishda grammatika - tarjima metodidan foydalaning. Lotin yoki sanskrit kabi qadimgi tilni o‘rgatganlar bu usuldan foydalanishgan. Bu grammatika qoidalarini o‘rgatish, asl matnlarni o‘qitish va maqsadli tildan tilga tarjima qilishni o‘z ichiga oladi. Uzoq vaqt davomida ushbu yondashuv zamonaviy chet tillarini o‘rgatishda ham keng tarqalgan. Garchi u foydadan chetda qolgan bo‘lsada, vaqti - vaqti bilan foydalanish uchun ba‘zi afzalliklari bor. Grammatik tarjima bilan siz o‘quvchilaringizga maqsadli tilda qisqacha parcha berishingiz, yangi lug‘at bilan ta‘minlashingiz va ularga tarjima qilishga vaqt berishingiz mumkin.

7-usul. Og‘zaki nutqqa e‘tibor bering. Bolalar o‘z ona tillarini tinglash orqali o‘rganishlari kuzatuvlar orqali ma‘lum. O‘quvchingiz bilan faqatgina u o‘rganayotgan chet tilida suhbat qiling va unga ham o‘z ona tilisida gapirishiga ruhsat bermang. Bu metod fan tilida "to‘g‘ridan- to‘g‘ri" usuli deb ham nomlanadi.

Gap shundaki, eng yaxshi o‘qituvchilar barcha mumkin bo‘lgan yondashuvlardan tegishli vaqtda, tegishli mashg‘ulotlar uchun va o‘rganish uslublari shunday yondashuvni talab qiladigan bolalar uchun foydalanadilar.

Yakuniy maqsad – Ularni ma‘lum bir usul yoki uslubga rioya qilishga majburlash emas. Aksincha o‘quvchilaringizga mos keladigan chet tilini o‘qitish usullarini tanlash, ularni chet tiliga qiziqtirish va dars jaroyanlarini o‘ziga xos uslubda olib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shohida Xashimovna Shaxabitdinova Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid to‘plam - T.,2023
2. <http://Baxtiyor.uz>
3. www.ziyouz.com